INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATIDA QO'QON YOG'OCH O'YMAKORLIGI MAKTABI: USLUB VA QADRIYAT UYG'UNLIGI

Nazarov Abdulvohid Mamarasulovich
Namangan davlat texnika universiteti
nazarovabdulvohid266@gmail.com
+998998138804

Annotatsiya: Maqolada XX-XXI asr boshlarida Qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabi an'analari hamda xalq amaliy san'ati ustalarining ijod yo'li va ijodiy yondashuvlari taxlil qilingan. Farg'ona vodiysida xalq amaliy bezak san'atining rivoji o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon maktabi, Xaydar Nadjmiddinov, Qodirjon Haydarov, najjorlik, Abdug'ani Abdullayev, vassa, uslub, ayvon, islimiy va geometrik.

Annotation: The article analyzes the traditions of the Kokand school of wood carving in the late 20th and early 21st centuries, as well as the creative paths and artistic approaches of masters of folk applied art. The development of folk applied decorative art in the Fergana Valley is examined.

Keywords: Kokand school, Khaydar Najmiddinov, Qodirjon Haydarov, woodworking (carpentry), Abdugani Abdullayev, vassa, style, ayvan (veranda), islami and geometric.

Аннотация:В статье проанализированы традиции кокандской школы резьбы по дереву конца XX — начала XXI веков, а также творческий путь и художественные подходы мастеров народного прикладного искусства. Исследовано развитие народного декоративно-прикладного искусства в Ферганской долине.

Ключевые слова:Кокандская школа, Хайдар Наджмиддинов, Кодиржон Хайдаров, плотницкое дело (резьба по дереву), Абдугани Абдуллаев, васса, стиль, айван, исламий и геометрический.

Xalq amaliy san'atining rivoji davlatning iqtisodiy- ijtimoiy rivoji bilan uzviy bo'g'liqdur. XIX asr boshlarida Qo'qon xonligini tashkil etilishi va shaharsozlik rivoji ushbu hududda xalq amaliy bezak san'ati turlarining rivoj topishiga katta turtki bo'ldi. Yog'ochga ishlov berilgan san'at na'munalari kam saqlanib qolgan. Saqlanib qoldan na'munalar shuni ko'rsatdiki bu hududda ko'plab ustalar yetishib chiqdi.

XIX asr ohiri- XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Qo'qon o'ymakorlaridan bizgacha Xaydar Nadjmiddinovning ishlari na'munalari yetib keldi. Usta Qo'qonda o'yma naqshli eshiklar va ustunlar yasash, binolarga sharafa, muqarnaslar bezash kabi yog'ochga ishlov berishi bilan shug'ullandi. Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Toshkentda ishlabdi hamda turli yog'och o'ymakorlik maktablari sir-asrorlarini va hususiyatlari puxta o'rgandi, ayniqsa o'ziga hos pargori usulida o'ymakorlik ishlari bilan jahonga tanildi.

"1920- 1980 yillarga qadar o'ymakor yog'ochning funksional maqsadi torayganiga qaramamay, ushbu hunarmandchilikda mavjud bo'lgan mahalliy maktab an'analarining rivojlanishi davom etmoqda. Xiva, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Farg'ona, Shahrisabz kabi yog'och o'ymakorligi markazlari saqlanib qolgan. Me'morchilikda yog'och elementlarini o'yma naqshlar bilan bezash an'anasi saqlanib qolgan. [1. B.454].

"Bu davrda Qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabining ko'zga ko'ringan vakili Usta Xaydar o'g'li, Qodirjon Haydarovdir. Xuddi shu davrda boshqa Qo'qon ustalari, Q. Haydarovning shogirdlari o'z ishlarini boshladilar - G.Oxunov, R.G'aniyev, O. Tohirov,U.Toshmatov, I.Uzoqov, Yu.Umarovlardir. Marg'ilon o'ymakorlaridan bu davrda A. Umirzoqov va Yu. Mag'rufjonov faol mexnat qildilar"

Q. Haydarovning nabiralari Mirzausmon, Mirzayunus, Hasanjon Umarov va uning farzandlari, shogirdlari Abdug‘ani Abdullayev, Salimjon Ergashev, Mansur Jalilov, Nabijon Hushnazarov, Burxon Abdullayev, Odil Jalilov, Rafiq Maxmudov, Ibrohim Sodiqov, Islom Karimov, Murod Abdullayev usta Qodirjon Haydarov maktabi vakillari hisoblanadi. [1. B.138].

Qo‘qon yog‘och o‘ymakorlik maktabining yirik vakili, ustazoda Qodirjon Haydarov (1899-1983) Hunarni otasi bilan birga ishlab o‘rgangan. Otasi bilan Qo‘qon hunarmandlik maktabida dars bergan (1919-20-yillar), 1923-yilda Moskvadagi xalq xo‘jaligi ko‘rgazmasida ishladi. 1925-29 yillarda Qo‘qondagi Narimonov nomidagi internatda, 1929-31 yillarda Qo‘qon shahridagi yosh duradgorlar to‘garaklariga boshchilik qildi. "Yangi ma’dan" artelida usta (1936—54), Qo‘qon muzeyida ta’mirlovchi usta (1954-57). H. ustun, kursi, stol, xontaxta, quti, eshik, panjara, karavot va boshqa buyumlarni jozibador bezab shuhrat qozondi. 1958-yildan Toshkentdagi O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi va O‘zbekiston Badiiyot akadimyasi Markaziy ko‘rgazmalar zali eshiklari, Toshkent sirki binosi uchun namoyonlar va boshqa ko‘pgina o‘ymakori asarlar yaratdi, an’anaviy naqsh mujas-samotlarini yangi ohanglar bilan boyitdi. Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabining milliy an’analarini saqlab qolish va uni rivojlantirishda ustoz-shogird an’anasining o‘rni kattadur.

Bu sohada o‘z ishining yirik mutaxassisi, o‘z ijodida o‘tmish tajribasini saqlagan holda, ish jarayoniga muntazam ravishda yangiliklar kiritib kelgan ustalardan biri - Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabi vakili, asarlari nafaqat respublikamizda, balki uning sarhadlaridan tashqarida ham keng ma’lum bo‘lgan “O‘zbekiston xalq ustasi” Abdug‘ani Abdullayevdir.

Usta ustozi Q.Haydarov uslubini chuqur o‘rgandi. Islimiy naqshlari Boburiy va islimiy yozuvlarni eslatadi. A.Abdullayev ming yillik islimiy naqshlarni rivojlantirib, e’zozlagan holda shogirdlariga ham o‘rgatdi. U o‘ymakorlikning turli usullarini, jumladan, ustun va karnizlarni bezashda qo‘llaniladigan murakkab hajmli me’moriy to‘plamlar - muqarnasqori texnikasini, shuningdek, ko‘p qatlamli relyefli chuqur o‘ymakorlik uslublarini mukammal egallagan.

Yog‘och o‘ymakorligida an’analarning qayta tiklanishida hovuzak (stalaktitli gumbazchalar) usuli shift bezashning bu turi XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi o‘zbek me’morchiligida keng tarqalgan edi: bunga Qo‘qondagi Xudoyorxon saroyi, Buxorodagi Bolo-hovuz masjidi va Polovtsevning sobiq uyi (hozirgi O‘zbekiston amaliy san’at muzeyi) misol bo‘la oladi. Imom al-Buxoriy majmuasida taxtali shiftlar alohida kessonlarga (plafonlarga) bo‘lingan bo‘lib, ularning sakkiztasi chuqurlashtirilgan muqarnasli gumbazchalar bilan bezatilgan. Bunday konstruktiv-bezak usuli tantanali ayvonlarning asosiy ko‘rkiga aylandi. Yulduzsimon muqarnaslar gumbazlarga o‘ziga xos osmon gumbazi effektini baxsh etadi

A.Abdullayev ijodiy me’rosi ustozi bilan Toshkentdagi “Farg‘ona” choyxonasi, Xalqlar do‘stligi saroyi, “Zarafshon” retoranidagi o‘ymakor naqshli panjara, darvoza, eshik va namoyonlaridur. Usta mustaqil ijodini 1983 yildan O.Xojayev nomidagi teatr binosi, Toshkent shahrida “Muborak” restorani, Qarshi shahrida Qarshi teatri binosi, bir qator jamoat binolari va choyxonalari islimiy o‘yma naqshlar bilan bezatilgan ustun va eshik, darvoza,panjaralar ishladi.

U pargori uslubidagi yassi relyefli o‘ymakorlikning tengi yo‘q ustasi sanaladi. Uslubning nomi “pargor” ya’ni sirkul so‘zidan kelib chiqdi.

Mustaqillik yillarida milliy an’ana va xalq amaliy san’atiga bo‘lgan e’tibor yanada oshdi. Bu esa ustalar ijodini yana bir pog‘onaga yuqoriga ko‘tardi. Imom al- Buxoriy majmuasi, Toshkentdagi Xotira va qadrlash maydoni, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi, Marg‘ilondagi Burhoniddin Marg‘inoniy muzeyi va boshqa qator inshootlardagi yog‘och o‘ymakorlik ishlariga raxbarlik qilib, shogirdlari bilan birga sharafalar, xovuzaklar tayyorladi. Ayvonlar shiftiga vassajuft yopish, go‘zal o‘ymakori ustunlar ustaning yuksak maxoratining natijasidur.

Ustoning 30 ga yaqin yordamchi va shogirdlari (R.Mamatqulov, A. Xudoynazarov, J.Abdullayev (ustoning o‘g‘li), Z.Ergashev, A.Turdiyev va boshqalar) yog‘och o‘ymakorligi ishlarini bajarishda yuksak mahorat, boy fantaziya hamda material va shaklni nozik his qilish qobiliyatini namoyish etdilar.



1-rasm. O‘ngdan Q.Haydarov, Y.Rubinov, naqqosh A.Akbarov, A.Abdullayev

Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabida barcha buyumlar qo‘lda yasalgan. Buni aniqlash qiyin emas. Dastgoh orqali yaratilgan naqsh haddan tashqari yuksak darajada bo‘ladi, qo‘l mehnati esa mahsulotning aslligini saqlab qoldi. Faqat Qo‘qonda, qadimgi an’analar sirlarini saqlab kelayotgan Haydarovlar oilasi tufayli avloddan avlodga o‘tib kelayotgan noyob bilimlar guvohiga aylanish mumkin. “Pargori” naqshi – maktabning o‘ziga xos timsoli. Ushbu texnikani mamlakatning boshqa biror joyida uchratmaysiz. Bu yerda bir necha o‘n yillik tarixga ega an’anaviy asboblardan va tabiiy materiallardan foydalaniladi. Biror bir mahsulot chiqindiga chiqmaydi, hatto yog‘ochning eng mayda qismlaridan ham foydali buyumlar yasash mumkin. Buyumlarni tayyorlash uchun eng qulay material – bu tabiiy go‘zal naqshlari bilan birga yetarlicha qattiqlikka ega bo‘lgan yong‘oq daraxti. Kerakli darajada parvarish qilingan buyumlar egasiga bir umr xizmat qilishi mumkin, hech qanday ob-havo sharoiti ularga shikast yetkaza olmaydi. Qo‘qon maktabi vakili shunday an’ana bor. *«Faoliyatimni sanoatlashtirish niyatim yo‘q, chunki sanoat birinchi o‘ringa qo‘yilsa, kasb qalbiga zarar yetadi»*[1].

Xozirda Farg‘ona viloyati Furqat tumani ham yo‘g‘och o‘ymakorlik markaziga aylandi. Usta Muhammadali Yunusov Qo‘qonboy MFY hududida “Usta Yusufjon Naqqosh” oilaviy korxonasiga asos soldi. Beshinchi avlod ustasi ortirgan bilim va tajribalarini 60 dan ortiq yoshlarga o‘rgatish bilan birgalikda Vodiy shaharlari va Respublika bo‘ylab ushbu soha rivojiga katta xissa qo‘shdi. Farg‘ona shahridagi uzumni qayta ishlash korxonasi, “Baxt uyi”, Furqat tumanidagi “Abduqahhor ota” ziyoratgohi, Toshkent shahri yaqinidagi “Xon chorbog‘i” tepaligidagi me’moriy bezaklar usta qo‘llarida sayqal topdi.



2-rasm. Usta Muhammadali Yunusov ish jarayonida

[1] Q. Haydarovning evarasi Jamshid Haydarov.

Samarqand shahridagi “Doniyor payg‘ambar maqbarasi”da milliy arkli ayvon, Toshkent shahrida Hazrati Imom masjidi majmuasi, Yunusobod dahasida “Qatag‘on qurbonlari” xotirasi muzeyi ustunlari, Milliy bog‘dagi “Xalq amaliy san’ati” galereyasi aylana ayvonlari, Samarqadda Xayrati Imom Ismoil al- Buxoriy majmuasi, Jizzaxda “Ipak yo‘li” choyxonasi ustunlari va shiftlari Qo‘qon maktabi an’analari asosida bezatildi.

Qo‘qon “Jahon hunarmandchilik shahri” maqomining berilishida ham aynan yog‘och o‘ymakorligi san’ati asosiy mezon bo‘lib hizmat qildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Xaydar Nadjmiddinovning avlodlari hozirgi kunga qadar Qo‘qon maktabi an’analarga saqlab qolishga va yangi bezak turlari bilan boyitmoqdalar. Hozirda zamonaviy texnologiyalar rivoji yog‘och o‘yishni osonlashtirdi. Bu esa yangicha talqinlarni paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Xalq ustalarining ijodi esa san’at ixlosmandlarini o‘z jozibasi bilan o‘ziga maftun etib qolaveradi. Xalq amaliy bezak san’ati ham kelajakda ro`y berishi muqarrar sifat o`zgarishlari sari yuz tutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimov, A. “O‘zbekiston san’ati tarixi. Qadimgi davr,o‘rta asrlar,hozirgi zamon” Toshkent:Zilol buloq, 2022.
2. “QO‘QON” DAVLAT MUZEY- QO‘RIQXONASI TO‘PLAMI.(D. Mamatqulov.Yog‘och o‘ymakorligi)SILK ROAD MEDIA.Toshkent. 2022.
3. Наргиза Талипова. Резьба по дереву в творчестве народного мастера А. Абдуллаева. SANЪAT. 01/07/2008
4. Abdujalil Bobojonov. Farg‘ona xaqiqati gazetasi. Қишлоқларни яёв кезганда... 2023-yil 27-yanvar.
5. Manba Кокандская школа резьбы по дереву.